

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY MADANIYATNI TARBİYALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI



### Abstract:

Maqola mazmunida milliy madaniyat tushunchasining mazmuni, mohiyati va tarkibiy qismlari haqida yoritilgan bo'lib, Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy madaniyatni tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari haqida yoritilgan.

### Key words:

Development of virtualization, addiction, psychological characteristics, modern society, virtual communication, activity in social networks.

Author of the article:

Workspace (Education subject)

Norboboyeva Mohinur

ShDPI Maktabgacha ta'lim

Ashirova Sojida Baxromovna yo'nalishi

Milliy madaniyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar millatning tarixi, urf-odati, an'anasi, hayotiy qadriyatlari bilan birga ma'naviy merosi, madaniy boyluklari va ko'hna tarixiy yodgorliklaridir. Urf-odat va an'analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib-qoida; rasm-rusum, tamoyillar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olib, ularda o'z ifodasini topadi. An'analar - qadimdan insoniyat hayoti, turmushi, mehnati va ibratli hayot saboqlari bo'lib, avloddan-avlodga, o'tmishdan kelajakka meros bo'lib qoladigan, barcha tadbirlarda namoyon bo'ladigan ijtimoiy faoliyat mahsulidir. Marosimlar esa an'analar va urf-odatning amaliy ko'rinishidir. An'analar va urf-odatlar milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy va diniy bo'lib, milliy qadriyatlarining ajralmas qismidir. Chunki har qanday urf-odat, udum, rasm-rusum, marosim va an'analar milliy qadriyatlar negizida shakllanadi va milliy vijdon, milliy ruh, milliy xulq, milliy odob axloq mevasi sifatida uni yaratgan zukko xalq tarbiyasining asosini tashkil etadi. Globallashuv jarayonida qadriyatlarining ko'p hollarda o'z o'rnini topmayotgani nafaqat bir millatning, balki butun dunyo xalqlarining ma'naviy inqirozidan dalolat beradi.

Ma'daniyat inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, memorchilik, teatr, kinomotografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda "madaniyat" atamasi ostida mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Bu ma'noda madaniyat o'z ichiga san'at, fan va ma'naviy tizimlarni oladi.

Madaniyat-jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyluklarda ifodalanaadi. Bu tushuncha muayyan tarixiy davr konkret jamiyat, elat va millat shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalarini izohlash uchun qo'llaniladi. Bu atama tor ma'noda kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

Aslida madaniyat tushunchasi arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan bo'lib qadimgi arablar davrida paydo bo'lganligi aytiladi. Arablar kishilar hayotini ikki turga ajratadi.

-birinichisi badaviy yoki sahroi turmush hisoblanadi  
-ikkinchisini madaniy turmush sanaladi

Ularning fikricha badaviylik atamasi ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga va odamlarga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, madaniylik atamasi esa shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

Arablar davrida bir qancha vaqt o'tib ya'ni fan-texnika taraqqiy topgan davrlarda ko'pgina sotsiologlar va madaniyatshunoslar madaniyatning yagona g'oyasini izchil amalga oshirish mumkin emas, degan g'oyani ilgari sura boshladilar. Bu politsentrizm, G'arb bilan Sharqning azaldan qarama-qarshiligi va ijtimoiy taraqqiyotning boshqa umumiy qonuniyatlarini inkor etuvchi nazariyalarda o'z ifodasini topdi. Madaniyatning ilmiy, tarixiy konsepsiyalariga qarama-qarshi o'laroq, marksistik nazariya ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi, ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlarining o'zaro aloqalari haqidagi qoidalardan kelib chiqib, antagonistik jamiyatlarda madaniyatning sinfiy harakati haqidagi qoidalarni ilgari surdi. Ana shu qoidadan kelib chiqib, mustabid sovet tuzumi davrida amalga oshirilgan "madaniy inqilob" natijasida ko'pgina xalqlar madaniyatining ajoyib durdonalari yo'q qilinib, madaniy merosning milliy ildizlari barbod etilganligi haqida manbalarni ko'p uchratamiz.

Madaniyat umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o'ziga yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat o'zi yaratgan bo'lsada, unda jaxon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi. Madaniyat hech qachon sinfiy hodisa bo'la olmaydi. U barchaga baravar xizmat qiladi. Madaniyat kishilar faoliyatining faqat moddiy natijalari (mashinalar, texnik inshootlar, san'at asarlari, huquq, axloq normalari va h.k.) ni emas, shu bilan birga, kishilarning mehnat jarayonida voqe bo'ladigan subyektiv kuch-quvvatlari va qobiliyatlari (bilim va ko'nikmalari, ishlab chiqarish va professional malakalari, intellektual, estetik va axloqiy kamoloti, dunyoqarashi, ularning jamoa va jamiyat doirasidagi o'zaro muomalalari) ni ham o'z ichiga oladi. Madaniyatning 2 asosiy turi mavjud bo'lib moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishga qarab moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. Moddiy faoliyatning barcha sohalari hamda uning natijalari (mehnat qurollari, turar joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalar) ni o'z ichiga oladi. Ma'naviy madaniyatga ong, ma'naviyat sohalari kiradi (bilim, axloq, talim-tarbiya, huquq, falsafa, etika, estetika, fan, san'at, adabiyot, mifologiya, din va boshqalar). Har bir jamiyat o'z madaniyat tipiga ega.

O'sib kelayotgan yosh avlodni milliy madaniyat ruhi asosida tarbiyalash va intellektual rivojlantirish g'oyasi ko'pgina pedagoglar va psixologlar tomonidan ilgari surilgan. Ular o'zlari ilgari surgan didaktik nazariyalarda bolalarning qiziqishlarini himoya qilish va ularga insonparvarlik tamoyillari asosida yondashish nuqtai nazariga tayanadilar. Shunday olimlar sirasiga N. Qurbonov, M.Ochilov, M.Murodov, R. Djuraev, J.G.Yuldoshev, R.Safarova kiritish mumkin. Yurtimiz tarixan olib qaraganda juda ham qadimiy davlatlar qatoridan joy oladi. Uning bu ko'hnaligi nafaqat moddiy balki, madaniy qadriyatlarda ham o'z ifodasini topgan. Bu an'ana, udumlarimiz etnolog olimlar, tarixchilar va sayohatchilar o'z asar va kundaliklarida ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tganlar. Bunga misol qilib ispan elchisi Klavixoning "Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat" kundaligi hamda Xerman Vamberining "Sayohatnoma" asarlarini keltirib o'tishimiz mumkin. Keyingi yillarda bu jarayonni kengroq tahlil qilgan.



olimlarimizdan A.Asqarov, K.Shoniyozov, A.Ashirov, I.Jabborov, S.Davletova, M.Ibragimova, X.Ismoilov, O.Bo'riyev, Sh.A.Abdullaeva, B. Asqarxo'jaeva, M.Rasulova, Z. Oxunova, G. Komilova, L.Nazirovalar va xorij olimlari F.Frebel, M.Montessori, O. Dekroli, Ye.I.Tixeeva mazkur muammo bilan shug'ullanganlar. Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinolarning ham asarlarida bola ta'lim-tarbiyasi muammolari ochib berilgan. O'zbek xalqining urf-odatlari, turmush tarzi, oilaviy marosimlari, ta'lim-tarbiya, madaniyat an'analari moziy uzoq asrlariga borib taqaladi. Barg ildizdan quvvat oladi deganlaridek, hozirgi va kelajak avlod o'z ajdodlarining milliy marosimini chuqur bilishi ular ma'naviyatning mag'zi to'qligi omilidir. Bu hamisha hamma avlod tomonidan e'tirof etilgan. Haqiqatda Kaykovus (1020-1099)ning «Qobusnoma» sidan tortib, al-Xorazmiy (783-850), Abu Nosir al-Forobiy (873-950), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037)larning nazmiy va nasriy asarlarida Yusuf Xos Hojib (XI asr) ning «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»), Ahmad Yugnakiy (XIII asr)ning «Hibbatul haqoyiq» («Haqiqat sovg'alari») kabi jahonga mashhur asarlaridan Alisher Navoiy( 1441-1501 )ning o'lmas she'riyatida, Qori Niyoziyning «Hayot maktabi», Abdulla Avloniyning( 1879-1934) «Guliston yoxud turkiy axloq» asarlarida sharq xalqlari, xususan, (1878-1934) o'zbek xalqiga xos ibratli tomonlar ochib berilganki, ular qalami orqali xalqimizga xos bo'lgan o'tonani hurmatlash, insoniylik, mehr-shafqat, mehmondo'stlik, ma'rifatga chanqoqlik, onani (ayolni) ulug'lash, farzandga mehrlil va fidoyi bo'lishlik kabi fazilatlarini dunyoga tanitgan deb baralla aytish mumkin. Yurtimizning inqilobdan keyingi dastlabki yillaridayoq ta'lim-tarbiya, ma'rifat va madaniyat borasidagi xalq tarbiyashunosligining ibratli tomonlari yuksak baholangan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Abdullayev va boshqalar "Madaniyatshunoslik asoslar" o'quv qo'llanma T.: "Turon-iqilob" nashriyoti 2006-yil
2. Xasanboyeva O va boshqalar. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" darslik T.: Ilm ziyo nashriyoti 2011-yil
3. Xasanova G. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalarida foydalanishning pedagogik mazmuni" o'quv qo'llanma T.: 2020-yil
4. Yo'ldosheva S. "Xalq urf-odatlari va an'anlari" o'quv qo'llanma T.: Ijod dunyosi nashriyot uyi 2003-yil